

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.12735971>

PEDAGOGIK FANLARNING O'QITILISHIDA XALQARO TAJRIBALAR DAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Dadabayeva Hayotxon Faxridin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

3-bosqich talabasi

[Tel:+998971102284](tel:+998971102284)

E-mail: dadabayevahayotxon@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada talim tizimini isloh qilishda rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanishning afzalliklari haqida so'z yuritiladi. Yetakchi davlatlar AQSH, Yaponiya ta'lim tizimi haqida ma'lumotlar berilgan. So'nggi davrlarda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, yaratilayotgan imkoniyatlar va zarur bo'lgan tajribalar haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Pedagog, ilg'or, xalqaro, ta'lim tizimi, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, quyi ta'lim, tajriba, AQSH, Yaponiya, Germaniya, kompyuter internet.

Abstract: This article talks about the advantages of using the best practices of developed countries in reforming the education system. Information about the education system of leading countries USA, Japan is given. Changes in the education system in recent times, opportunities created and necessary experiences were mentioned.

Key words: Pedagog, advanced, international, education system, primary education, secondary education, experience, USA, Japan, Germany, computer, internet.

So‘nggi davrlarda davlatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim sohasining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Aytish joizki, bizning ta’lim tizimimiz murakkab jarayonlarni bosib o’tgan va o‘tib kelmoqda. Bu islohotlardan ko‘zda utilgan asosiy maqsad ta’lim tizimini demokratlashtirish, unda insonparvarlik tamoyillarini shakllantirish va shu asosida o‘quv tarbiya ishlari mazmunini, shakli va uslubini kompleks yangilash va takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta’lim to‘la ma’noda yangicha tafakkur, sog‘lom fikr demakdir. Hozirgi kunda, zamonga hamnafas bo‘lib ta’lim berish yoki ta’lim olish, jahon maydonlarida o‘z o‘rni va so‘ziga ega bo‘lish uchun dolzarb bilimlarni egallash asosiy talablardir. Yoshlarimiz dunyodagi tengdoshlari bilan bir hil saviyada bilim olishlari uchun pedagoglarimiz xalqaro ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirgan bo‘lishlari, tinimsiz o‘z ustilarida ishlashlari ularga qo‘yilgan zamon talabidir.

Xalqaro tajribalarni qunt va sinchkovlik bilan o‘rganib, eng samarador ilg‘or texnologiyalarni bizning ta’lim tizimimizga, milliy qadriyatlarimizga mos holda tadbiq etish, o‘z dolzarbligini yo‘qotib borayotgan uslublardan voz kechish zarur. Prezidentimiz mamlakatimizda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur’atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini ta’kidlab o‘tkandilar. Shu maqsadda butun ta’lim tizimi tubdan takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanayotganligi maktab saboqlariga puxta zamin bo‘lmoqda. Umumiy o‘rtta ta’lim, Oliy ta’lim sifati ilg‘or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Alovida ta’kidlab o‘tish joizki, Prezident maktablari, buyuk ajdodlarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta’lim maskanlari tashkil etildi. Maktablarimizda aniq fanlar ya’ni matematika, kimyo, fizika, va biologiya fanlarining 10 foizigina amaliy mashg‘ulotga ajratilgan. Xorijiy rivojlangan davatlarda esa bu ko‘rsatkich 30-50 foizni tashkil etadi. Shu bois xalq ta’lim vazirligi Axborot texnologiyalarni va kommunikatisiyalarni rivojlantirish vazirligiga o‘quv dasturlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, aniq fanlarda amaliy mashg‘ulotlar ko‘lamini oshirish vazifasi qo‘yildi.

Hozirgi global davrda har qaysi davlat va jamiyatning taraqqiyoti darajasi, avvalambor inson kapitaliga uning rivojlanishiga qaratayotgan e'tibori va say harakatining natijasi bilan o'lchanadi. Bugungi kunda ta'lim mazmuniga bo'lgan e'tibor rivojlangan davlatlardagi shart-sharoitlarga yetib bormoqda. Buning isboti sifatida xorijiy davlatlar ta'lim tizimini tahlil qilib o'tamiz:

Yaponiya ta'lim tizimida "iqtidorli o'quvchi" tushunchasi yo'q, chunki har bir o'quvchi alohida iqtidor sohibidir. Rivojlangan mamlakatlar ichida Yaponiya ta'lim tizimi o'ziga xos yo'nalishi bilan yetakchi o'rnlarni egallaydi. Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimiga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlarining maoshidan yuqori bo'lgan yagona davlat. Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va ma'suliyati ancha yuqori. Ular farzandlarining aqlli, ilmli, don ova mexnatsevar bo'lib ulg'ayishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini mas'ul deb hisoblaydi. Bu davlatda yana bir ajralib turadigan jihatlari shundaki, oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televiedeniya orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Yaponiya oilalaridagi uy partalari ayniqsa diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo'lib, parta ustida kitob javoni, soat, yoritgich, qalam, qog'oz, mikrokalkulyator va boshqa zaruriy ashyolar, hatto zarur bo'lib qolganda ota-onalarini chaqiradigan signal tugmachalari o'rnatilgan. AQSH ning o'rta maktablari saviyasidan Yaponiya o'rta maktablarining saviyasi bir muncha yuqori turadi. Yuqoridagilardan amin bo'lamizki, Yaponiya ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. E'tiborli jihatlaridan yana biri Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamalakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan. Bunday tajribalar davlatimiz ta'lim tizimini yuqori pog'onalarga ko'tarilishida qo'l keladi.

Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimida o'rta ta'lim 12 yil davom etadi va boshlang'ich o'rta va quyi maktablarga bo'linadi. Asosiy qismi davlat maktablaridan

iborat va bu maktablarda o‘quvchilarning 88 foizi o‘qiydi. Ta’lim muassasalarini davlat va shahar buyudjetlari moliyalashtiradi. Xususiy maktablarga esa 12 foiz o‘quvchi boradi, ularning moddiy resurslari ota-onalari, turli mablag‘lar va xayriya mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi. Odatta har bir sinf xonasida televizor va kompyuter bor. Kompyuter sinflari yuqori tezlikdagi internetga ulangan. O‘qituvchi tomonidan barcha vazifalar o‘quvchilarga bosma shaklda berilgani tufayli nusxa ko‘chirish uskunalri juda ko‘p joyda joylashgan. Boshlang‘ich maktablarida har yili sinf o‘qituvchisi o‘zgaradi. Boshlang‘ich sinflarda matematik bilimlarning hajmi Angliya va Rossiya maktablari darajasiga nisbatan yengilroq. Amerika maktablarining o‘ziga xos usullaridan biri har bir o‘quvchining “Hisobot kartasi” yuritilishidir. Bunda o‘quvchilar 10 hil xatti-harakatlari bo‘yicha baholanadi. Ota-onalar Ushbu karta bilan muntazam tanishib boradilar va farzandlari oqsayotgan tomonlarini aniqlab, uni tuzatishga harakat qilishadi. Amerika pedogoglari haftasiga bir marotaba 1-3-sinflari uchun “Sevimli o‘yinchoq” metodini qo‘llashadi. Ushbu metodda o‘quvchilar o‘zlarining sevimli o‘yinchoqlarini ta’riflashadi. Bu metodni qo‘llashdan maqsad bolalarni uyatchanlikdan xalos bo‘lishga, ommani oldida erkin gapira olishga o‘rgatishdir. Amerikada ta’lim tizimining haddan ziyod demokratlashuvi talabalarning bilimini puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli moddiy boy bo‘lgan va tajribaga ega bo‘lgan davlatda butunlay savodsiz bo‘lgan bolalar ham topiladi. AQSH ning ta’lim tizimidagi ijobiy tomonlarining qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Fransiyada ta’lim sifati ta’lim, sport, tadqiqotlar bo‘yicha bosh inspeksiya tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu bosh inspeksiya 4ta vazirlik uchun faoliyat ko‘rsatadi.

1. Qo‘llab-quvvatlash- ta’lim, fan, sport, madaniyat boshqaruvi idoralarini oliv ta’lim rektoratlarini.
2. Ekspertiza qilish- vazirliklar, idoralar, shartnomalar, rahbarlar faoliyati, xizmatlar, tuzilmalar va boshqalar.

3. Baholash- tashkilotlar, muassasalar, tuzilmalar, ijtimoiy-siyosiy ahvol, kadrlar.
4. Nazorat qilish- tashkilotlar, muassasalar, xizmatlar va kadrlar.

Fransiya ta’lim tizimiga ko‘ra bolalar 6-7 yoshida tayyorlov sinfiga boradi, so‘ng shu maktabda 4 yil davomida boshlang‘ich sinfida o‘qiydi. Keying bosqich o‘rta ta’lim kollej deb ataladi. U yerda bola 4 yil o‘qiydi va to‘liqsiz maktab bitiruvchisi deb hujjat beriladi. Keying 3 yil davomida turli yo‘nalishdagi litseylarda o‘qiydi hamda yakunida bakalavr imtihonini topshirib uning natijasiga qarab OTM larga qabul qilinadi. Fransiyada maktab o‘qituvchilariga talab o‘ta yuqori. Ayniqsa, boshlang‘ich maktablarda o‘qituvchi o‘z kasbining ustasi, ajoyib notiq, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq egasi bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish ta’lim inspeksiyasi tashkil qilinganiga endigina 5 yil bo‘ldi. Mazkur davr oralig‘ida inspeksiyaga yuklatilgan vazifalarni bajarish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni yurtimiz ta’lim sifatini baholash ishlarini joriy etish bo‘yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G.Anorqulova, A.Karimov. Xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimining o‘ziga xos yo‘nalishi, uslub va tahlili. Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnali.2017. 3-son.
2. R.Ilashova. “Amerika maktablarida-Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. 2019-yil. 3-son
3. Ikromov A.B. Maxmudov S.Y. Anorqulova G.M. Germaniya: Ta’lim, ilm-fan (metodik qo‘llanma. Kasb mahorati jurnali-2024-yil. 2-son.
4. A.Nosirov. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 2019-yil. 12-son.
5. Yo‘ldoshev J.F. Xorijda ta’lim (metodik qo‘llanma)-Toshkent:1995-yil.